

Bank Boshqaruvining
2025-yil “_____” _____dagi
_____sonli qaroriga
ilova

**O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki tizimida
kreditlar evaziga garovga olingan mol-mulkni taqiqdan
chiqarish talablari to‘g‘risidagi
TARTIB (yangi tahrirda)**

Mazkur Tartib (keyingi o‘rinlarda – Tartib) O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Garov to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3620-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Bank xizmatlari iste‘molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami 3030, 02.07.2018-y.) Nizomi, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi 468-son qarori bilan tasdiqlangan “Boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlab yoki xatlab qo‘yilgan mol-mulkni elektron ma‘lumotlar bankini shakllantirish, yuritish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Nizomlar, 2023-yil 27-noyabrdagi “Mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazishga qo‘yilgan taqiqlarni (xatlovlarni) bekor qilish jarayonlarining soddalashtirilishi munosabati bilan boshqa shaxsga o‘tkazish taqiqlab yoki xatlab qo‘yilgan mol-mulkni elektron ma‘lumotlar bankini shakllantirish, yuritish va undan foydalanish to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 626-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) Kredit siyosatiga asosan ishlab chiqilgan.

Mazkur hujjat Bank tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq kredit ajratilgan mijozlar tomonidan shartnomaga asosan qarzdorlik summasini to‘lash majburiyati to‘liq bajarilgan yoki garov shartnomasida ko‘rsatilgan boshqa usulda so‘ndirilgan, shuningdek, qarzdorlik qisman so‘ndirilganda, kredit ta‘minoti sifatida qayd etilgan garov mol-mulki almashtirilayotgan holatlarda majburiyatlarni ta‘minlash uchun rasmiylashtirilgan garov mol-mulkni taqiqdan chiqarish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartibda quyidagi tushuncha va atamalar qo‘llaniladi:

mijoz – bank va mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq kredit (qarz) bo‘yicha majburiyat olgan jismoniy shaxs, yuridik shaxs maqomidagi yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyekti (yakka tartibdagi tadbirkor, dehqon xo‘jaligi va h.k.);

“Call-Action” – bank xizmatlari markazlari tomonidan ajratilgan kreditlar bo‘yicha amalga oshiriladigan monitoring va kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish jarayonlarini boshqarish yuzasidan ishlab chiqilgan bankning ichki dasturiy ta‘minoti;

“Hard-Action” – “Hard collection” departamenti tomonidan foydalanuvchi Bankning ichki dasturiy ta‘minoti;

ariza – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi iltimos bayon etilgan murojaat;

garov narsasi – har qanday mol-mulk, shu jumladan, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo‘lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning

shaxsi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan talablar, xususan, hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi talablar, alimentlar to‘g‘risidagi talablar hamda o‘zga shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno;

vakolatli kollegial organ – Bank markaziy apparat Kredit qo‘mitasi, Muammoli aktivlar qo‘mitasi, Kredit shartlarini qayta ko‘rib chiqish va garov mulklari bilan ishlash komissiyasi hamda mintaqaviy markaz Kredit komissiyasi;

BXM – bank xizmatlari markazi;

aloqa xati – mulkni qisman taqiqlan chiqarish yoki garov mulkini almashtirish uchun Bankning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mintaqaviy markazlari boshliqlarining markaziy apparatga hamda to‘liq so‘ndirilgan kreditlar bo‘yicha notarial idoralar tomonidan va garov reyestri orqali qo‘yilgan taqiqlarni bekor qilish uchun mintaqaviy markaz Kreditlar monitoringi boshqarmasining Bosh amaliyotlar boshqarmasi Kredit administratsiya markaziga (keyingi o‘rinlarda – Markaz) qilgan yozma murojaati;

elektron servis – “Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat muassasasining elektron servisi.

2-§. Garov narsasini to‘liq taqiqlan chiqarish vakolatlari va asoslari

2. Mijozning Bank oldidagi majburiyatlari (Kredit va u bilan bog‘liq barcha to‘lovlar, jumladan, foizlar, neustoyka) to‘liq so‘ndirilgandan so‘ng, mintaqaviy markaz Kreditlar monitoringi boshqarmasi mas‘ul xodimi tomonidan (keyingi o‘rinlarda – mas‘ul xodim) “Call-Action” dasturida (keyingi o‘rinlarda – dastur) so‘rov yaratiladi hamda ushbu so‘rov asosida aloqa xati shakllanadi.

Dasturda shakllangan aloqa xati va tegishli hujjatlar mas‘ul xodim va mintaqaviy markaz Kreditlar monitoringi boshqarmasi boshlig‘i tomonidan imzolangan holda 2 (ikki) bank ish kun muddatida notarial idoralar (garov va ipoteka shartnomalari) tomonidan hamda garov reyestri orqali qo‘yilgan taqiqlarni bekor qilish uchun dastur orqali Markazga yuboriladi.

3. Markaz mas‘ul xodimi imzolangan aloqa xati asosida Bankning iABS dasturiy ta‘minoti orqali mijozning kredit anketasida biriktirilgan hisobvaraqlar bo‘yicha kredit qarzdorliklari to‘liq so‘ndirilganligini tekshiradi.

4. Markaz mas‘ul xodim mijozning Bank oldidagi majburiyatlari to‘liq so‘ndirilganligiga ishonch hosil qilgach, 1 (bir) bank ish kunida dastur orqali “Adliya organlari va muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” davlat muassasasining elektron servisiga garovga olingan mol-mulkni taqiqlan yechish bo‘yicha so‘rov yuboradi, shuningdek, Bankning ushbu mol-mulkka nisbatan huquqlari to‘g‘risidagi yozuvni garov reyestridan o‘chirish choralarini ko‘radi.

5. Garov narsasi taqiqlan yechilganida, ushbu haqida mijozning telefon raqamiga “SMS xabarnomasi” yuboriladi va xabarnomada garov narsasining taqiqlan yechilganlik to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma havolasi qayd etiladi.

Mazkur havola orqali mijoz garov narsasining taqiqlan yechilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani yuklab olishi mumkin bo‘ladi.

3-§. Garov narsasini qisman taqiqlan chiqarish va/yoki tarkibini almashtirish

6. Garov narsasini qisman taqiqlan chiqarish yoki boshqasi bilan almashtirish masalasi bank va mijoz o‘rtasida imzolangan kredit yoki garov shartnomasida nazarda tutilmagan holatlarda, mazkur masalani ko‘rib chiqish yoki ko‘rib chiqmaslik bevosita Bankning huquqi hisoblanadi.

Garovga qo‘yilgan mol-mulklar likvidli bo‘lib, Bank Kredit siyosati talablari va manfaatlariga mos kelsa, garov narsasini qisman taqiqlan chiqarilishi yoki garovda turgan mol-mulkni boshqasiga almashtirish masalasi ko‘rib chiqilishi mumkin.

7. Garovga olingan mol-mulkni qisman taqiqdan chiqarish yoki garov mulkini almashtirishga mijozga ajratilgan kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar mavjud bo'lmagan hollardagina yo'l qo'yiladi. Bunda:

garov mulkini qisman taqiqdan chiqarish masalasi ko'rib chiqilayotganda, garovda qolayotgan mulk narxi va likvidlilik darajasi garovdan chiqarilayotgan mulkka nisbatan yuqori bo'lishi;

garov mulkini almashtirish masalasi ko'rib chiqilayotganda, taqdim etilayotgan likvidli mol-mulkning qiymati taqiqdan chiqarilayotgan garov qiymatidan kam bo'lmashligi yoki undan ortiqni tashkil etishi lozim.

8. Garov narsasini qisman taqiqdan chiqarish va garov mulkini almashtirishda sug'urta kompaniyalari kafolatlari va yuridik/jismoniy shaxslar bilan imzolangan kafillik shartnomalari asosida qabul qilingan ta'minotlar likvidli qiymat sifatida hisobga olinmaydi. Bunda, faqat real likvidli mol-mulk, shu jumladan, ashyolar va mulkiy huquqlar qiymati kredit qoldig'iga nisbatan yetarliligi hisobga olinadi.

9. Garov narsasini qisman taqiqdan chiqarish yoki garov mulkini almashtirishda mol-mulklar qiymatini baholash Bankning Kredit siyosatida belgilangan mezon va me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Garov narsasini qisman taqiqdan chiqarish yoki almashtirish to'g'risidagi qaror Bankning tegishli vakolatli kollegial organlari tomonidan qabul qilinadi.

10. Garov narsasini qisman taqiqdan chiqarish va/yoki tarkibini almashtirish Bankning amaldagi Kredit siyosatiga asosan quyidagicha:

“Standart” va “Substandart” deb tasniflangan kreditlar bo'yicha mijoz arizasiga asosan, Bankning mintaqaviy markazlaridagi Kreditlar monitoringi boshqarmasi mas'ul xodimi tomonidan garov narsasini qisman taqiqdan chiqarish va/yoki tarkibini almashtirishga oid hujjatlar shakllantirilib, mintaqaviy markazning tegishli komissiyasiga taqdim etiladi. Mazkur masala tegishli komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, ijobiy qaror qabul qilinganidan so'ng, mintaqaviy markaz boshlig'ining aloqa xati va barcha zaruriy hujjatlarni ko'rib chiqish uchun dastur orqali markaziy apparatning Kreditlar monitoringi departamentiga;

“Qoniqarsiz”, “Shubhali” va “Umidsiz” deb tasniflangan kreditlar bo'yicha mijoz arizasiga asosan, Bankning mintaqaviy markazlaridagi “Hard collection” boshqarmasi mas'ul xodimi tomonidan garov narsasini qisman taqiqdan chiqarish va/yoki tarkibini almashtirishga oid hujjatlar shakllantirilib, mintaqaviy markazning tegishli komissiyasiga taqdim etiladi. Mazkur masala tegishli komissiya tomonidan ko'rib chiqilib, ijobiy qaror qabul qilinganidan so'ng, mintaqaviy markaz boshlig'ining aloqa xati va barcha zaruriy hujjatlarni ko'rib chiqish uchun “Hard-Action” dasturi orqali markaziy apparatning “Hard collection” departamentiga yuboriladi.

11. Tegishliligi bo'yicha, Bank markaziy apparatning “Hard collection” yoki Kreditlar monitoringi departamenti mas'ul xodimi tomonidan hujjatlar belgilangan tartibda o'rganib chiqilib, (agar kamchiliklar mavjud bo'lsa, bartaraf etish uchun tegishli dasturlar orqali qaytariladi) tegishli vakolatli kollegial organga garov narsasini qisman taqiqdan chiqarish va/yoki tarkibini almashtirish yuzasidan ijobiy xulosa taqdim qilinadi.

12. Vakolatli kollegial organ tomonidan garov narsasini qisman taqiqdan chiqarish va/yoki tarkibini almashtirish to'g'risida ijobiy qarori qabul qilinganda, mazkur hujjat ko'chirmasi tegishli dasturlarga yuklangan holda, mintaqaviy markazlarga ijro uchun yuboriladi.

13. Vakolatli kollegial organing qarorida qayd etilgan shartlar bajarilganidan so'ng, rasmiylashtirilgan hujjatlar navbatdagi amaliyotlarni bajarish uchun tegishliligi bo'yicha mintaqaviy markazlardagi “Hard collection” yoki Kreditlar monitoringi boshqarmasining mas'ul xodimi tomonidan dastur orqali Markazga yuboriladi.

14. “Hard collection” yoki Kreditlar monitoringi departamenti xodimlari tegishliligi bo'yicha garov narsasini qisman taqiqdand chiqarish va/yoki tarkibini almashtirishga oid hujjatlarni vakolatli kollegial organ qarori talablariga muvofiqiligini ko'rib chiqib, dastur orqali tasdiqlaydi.

15. Markaz mas'ul xodimi garov narsasini qisman taqiqdand chiqarish va/yoki tarkibini almashtirishga oid hujjatlarni vakolatli kollegial organ qarori talablariga muvofiqiligini qayta ko'rib chiqib, garov narsasini qisman taqiqdand chiqarish va/yoki tarkibini almashtirishga doir amaliyotlarning bajarilishini ta'minlaydi.

16. Muayyan loyiha bo'yicha garovga olingan mol-mulkni navbatdagi garov narsasi sifatida rasmiylashtirilgan hollarda, mol-mulkni taqiqdand yechish aynan yopilgan kredit anketasiga nisbatan ruxsat etiladi va ushbu Tartibning 10 va 14-bandlarida qayd etilgan talablar asosida amalga oshiriladi.

17. Garovga qo'yilgan mol-mulklarni qisman taqiqdand chiqarish va/yoki almashtirish Bank markaziy apparatining mas'ul tarkibiy bo'linmasi va vakolatli kollegial organi tomonidan 20 (yigirma) bank ish kunidan kechiktirmay ko'rib chiqiladi hamda ushbu muddat ichida vakolatli kollegial organning qarori haqida arizachiga xabar beriladi.

18. Garovga qo'yilgan mol-mulklarni taqiqdand chiqarish va/yoki almashtirish Tartibning 6, 7 va 8-bandlarida qayd etilgan talablarga mos kelmasa, Bankning mintaqaviy yoki bank xizmatlari markazlari tomonidan ariza muallifiga rad javobi berilishi mumkin.

19. Quyidagi hollarda garov mulkini qisman taqiqdand chiqarish va/yoki tarkibini almashtirish tavsiya etilmaydi. Jumladan:

qarzdor yaxshi kredit tarixiga ega bo'lmasa;

kredit muammoga aylangan bo'lsa;

kreditni qaytarish sud jarayonida ko'rib chiqilayotgan bo'lsa;

kredit maqsadsiz sarflangan bo'lsa;

kreditning asosiy ta'minoti sifatida faqatgina ombordagi mahsulotlar, qimmatli qog'ozlar garovi, kredit va hisoblangan foizlarning qaytmaslik xatarini kamaytirish uchun ta'minot sifatida taqdim etilgan banklar hamda sug'urta kompaniyalarining kafolatlari, uchinchi shaxslarning kafilliklari qolib, kredit ta'minoti tarkibidan ko'char va ko'chmas mulklarni taqiqdand chiqarish so'ralgan bo'lsa;

kredit ta'minoti sifatida taqdim etilgan ko'chmas mulklar yerdan foydalanish/doimiy foydalanish va boshqa huquqlar asosida garovga qo'yilgan bo'lsa hamda keyinchalik ushbu garov obyektining bo'sh yer maydonlarida qo'shimcha qurilishlar amalga oshirilganda, qurilgan bino-inshootlar joylashgan yer maydonini taqiqdand chiqarish so'ralgan bo'lsa.

20. Mazkur Tartibning 18-bandida qayd etilgan holatlar mavjud bo'lganda, garovga olingan mol-mulklarni qisman taqiqdand chiqarish va/yoki tarkibini almashtirish masalasi faqatgina tegishli vakolatli kollegial organ tomonidan ko'rib chiqilishi va uning qarori bilan amaliyotlarning bajarilishiga ruxsat etiladi.

4-§. “E-auksion” platformasi orqali sotilgan garov narsasini taqiqdand chiqarish

21. “E-auksion” platformasi orqali sotilgan garov narsasini taqiqdand chiqarish uchun tegishli hujjatlarni (auksion bayonnomasi, garov shartnomasi hamda taqiq kartasi) mintaqaviy markazlardagi “Hard collection” boshqarmasining mas'ul xodimi tomonidan dastur orqali “Hard collection” departamentiga yuboriladi.

22. “Hard collection” departamenti mas'ul xodimi “E-auksion” platformasida sotilgan mulkning mablag'lari, ushbu mulk kredit ta'minoti sifatida qabul qilingan kredit qarzdorligi so'ndirilganligini tekshirib, dastur orqali tasdiqlaydi.

23. Markaz mas'ul xodimi dastur orqali kelib tushgan hujjatlar asosida garov narsasini qisman taqiqdand chiqarish va/yoki tarkibini almashtirishga doir amaliyotlar bajarilishini ta'minlaydi.

5-§. Mas'uliyat va javobgarlik

24. Tartibda nazarda tutilgan amaliyotlarning bajarilishi va hujjatlarning rasmiylashtirilishiga mas'ul rahbar va xodimlar tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari, qoidalar hamda talablarni buzganliklari uchun, shuningdek, qabul qilingan qarorlar, tijorat sirlariga oid va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa ma'lumotlarning oshkor qilinishi, davlat organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan qo'llaniladigan sanksiyalar, Bankka moddiy zararlar yetkazilishi, Bank obro'si va nufuziga ta'sir etuvchi salbiy oqibatlarga olib kelganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq intizomiy hamda boshqa javobgarlikka tortilishlari mumkin.

25. Ijroga mas'ul rahbar va xodimlar O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi va "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunlari, shuningdek, "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari" (ro'yxat raqami 2886, 23.05.2017-y.) talablariga qat'iy rioya etish yuzasidan javobgardirlar.

6-§. Yakuniy qoidalar

26. Mazkur Tartib sohani tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik hujjatlari me'yorlari asosida tayyorlangan bo'lib, Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari uchun majburiydir, shuningdek, ushbu hujjatning qo'llanishi natijasida kelib chiqqan huquqiy munosabatlar tegishli ichki normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

27. Mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

28. Ushbu Tartib Bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va amaliyotga tatbiq etiladi, shuningdek, belgilangan tartibda bankning rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.